

1960-1980-YILLARDA QORAQALPOG‘ISTONDA MADANIY-MA’RIFIY MUASSASALAR FAOLIYATI VA ULARNING IJTIMOIIY HAYOTDAGI O‘RNI

Shamshetdinova D.I.

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20308987>

Kirish. 1960-1980-yillar Qoraqalpog‘iston tarixida madaniy-ma’rifiy sohaning sezilarli darajada rivojlangan davrlaridan biri hisoblanadi. Bu davr sobiq ittifoq miqyosida amalga oshirilgan siyosiy va ijtimoiy islohotlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, madaniyat sohasi ham umumittifoq mafkuraviy tizimi asosida shakllandi. Madaniy siyosatning asosiy maqsadi aholining savodxonligini oshirish, ularni “yangi inson” sifatida tarbiyalash va kommunistik g‘oyalarni singdirishdan iborat edi.

Mazkur jarayonda Qoraqalpog‘iston hududida turli madaniy-ma’rifiy muassasalar tarmog‘i kengaytirildi. Xususan, klub muassasalari, kutubxonalar, madaniyat uylari va xalq universitetlari tashkil etilib, ular orqali aholining keng qatlamlarini qamrab olishga harakat qilindi. Shu jihatdan ushbu davrni o‘rganish nafaqat tarixiy, balki ijtimoiy-madaniy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. 1960–1980-yillarda Qoraqalpog‘istonda madaniy hayotning rivojlanishi, avvalo, davlat tomonidan ajratilgan moddiy resurslar va institutsional o‘zgarishlar bilan belgilanadi. 1963-yilda Madaniyat vazirligining tashkil etilishi ushbu sohani boshqarish va muvofiqlashtirishni yangi bosqichga olib chiqdi. Natijada madaniy muassasalar soni ortib, ularning faoliyati tizimli ravishda yo‘lga qo‘yildi. Masalan, ommaviy kutubxonalar soni 1960-yildagi 305 tadan 1980-yillarga kelib 567 taga ko‘paydi. Shu bilan birga, kino namoyishlari tizimi kengaydi, 1964-yilda Nukus televideniye studiyasining ish boshlashi esa axborot makonini yanada boyitdi. Biroq shuni alohida ta’kidlash joizki, madaniy mahsulotlar mazmunida markaziy mafkuraning ustunligi yaqqol sezilib turardi. Gazeta va jurnallar asosan markaziy hokimiyat siyosatini targ‘ib qilgan bo‘lsa, teatr va kinoteatr repertuarida sotsialistik realizm ruhidagi asarlar ustunlik qilgan [1,61]. Bu esa milliy madaniyatning erkin rivojlanishiga ma’lum darajada to‘sqinlik qilgan omillardan biri edi.

Bu davrda ayniqsa klub muassasalari muhim o‘rin tutdi. Ular qishloq joylarda aholining asosiy madaniy markaziga aylandi. Klub va madaniyat uylari aholining nafaqat dam olish, balki bilim olish, ijtimoiy faolligini oshirish maskani sifatida xizmat qildi [2]. Bu muassasalarda ma’ruzalar, suhbatlar, konsertlar, teatr tomoshalari, kinoko‘rsatuvlar hamda turli mavzudagi kechalar tashkil etildi. Shuni alohida qayd etish kerakki, klub muassasalari faoliyati ko‘p funksiyali xarakterga

ega edi. [3] Ular bir vaqtning o'zida madaniyat markazi, ta'lim maskani va ijtimoiy muloqot maydoni vazifasini bajardi. Ayniqsa, qishloq joylarda ular yagona madaniy muassasa sifatida faoliyat yuritib, aholining turli ehtiyojlarini qondirdi.

Statistik ma'lumotlar ushbu davrda klub muassasalari sonining ortib borganini ko'rsatadi. Qoraqalpog'istonda qishloq hududlarida faoliyat yuritgan klub muassasalari soni shaharlardagiga qaraganda sezilarli darajada ustun bo'lib, ular mos ravishda 80 ta va 46 tani tashkil etgan [4,51]. Shu bilan birga, badiiy havaskorlik to'garaklari ham faol rivojlandi. Drama, musiqa, xor va raqs yo'nalishlarida tashkil etilgan to'garaklar yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishiga xizmat qildi. Minglab yoshlarning ushbu jarayonga jalb etilishi madaniy hayotning ommalashganini anglatadi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatda ma'ruzalar muhim o'rin egalladi. 1960-yillarda o'tkazilgan ma'ruzalar mavzusi juda keng bo'lib, ilm-fan yutuqlari, qishloq xo'jaligi, texnika, sog'liqni saqlash kabi yo'nalishlarni qamrab oldi. Shu bilan birga, diniy qarashlarni tanqid qilishga qaratilgan mavzular ham mavjud edi [5,62]. Bu esa o'sha davr mafkuraviy siyosatining ajralmas qismi bo'lganini ko'rsatadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, birgina 1965-yilda minglab ma'ruzalar o'tkazilib, yuz minglab tinglovchilar qamrab olingan. Xususan, respublika bo'yicha 4045 ta ma'ruza va doklad o'tkazilib, ularga jami 212 961 nafar tinglovchi jalb qilingan. Shuningdek, ma'ruzalar bilan cheklanib qolmasdan, 305 ta turli mavzudagi kecha va ommaviy tadbirlar ham uyushtirilib, ularda 13 625 nafar ishtirokchi qatnashgan [6,78]. Bu holat aholining ma'rifiy tadbirlarga faol jalb etilganidan dalolat beradi. Biroq mazkur faoliyat ko'pincha bir tomonlama mafkuraviy yo'nalishda olib borilgani sababli, mustaqil fikrlash imkoniyatlari cheklanganini ham inkor etib bo'lmaydi.

Mazkur davrda "xalq universitetlari" deb atalgan yangi shakldagi ta'lim tizimi ham shakllandi. Qoraqalpog'istonda ilk xalq madaniyat universiteti 1959-yilda Nukus shahrida tashkil etilib, u keyingi yillarda ushbu yo'nalishning tizimli va barqaror rivojlanishi uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qildi [7,63]. Ular aholiga ilmiy va amaliy bilimlarni yetkazishning samarali vositasiga aylandi. Ayniqsa, qishloq joylarda bu universitetlar orqali aholiga kundalik hayotda zarur bo'lgan bilimlar – gigiyena, ovqatlanish, bolalar tarbiyasi, uy-joyni tartibga solish kabi masalalar o'rgatildi. Shuningdek, sog'liqni saqlashga oid ma'ruzalar katta qiziqish uyg'otgan. Bu esa aholining turmush madaniyati asta-sekin o'zgarib borayotganini ko'rsatadi. Shu jihatdan xalq universitetlari nafaqat mafkuraviy, balki amaliy foydaga ega bo'lgan tizim sifatida ham ahamiyatli bo'lgan.

Kutubxona tizimi ham ushbu davrda jadal rivojlandi. Qishloq joylarda yangi kutubxonalar ochildi, mavjudlari esa boyitildi. Kitob fondlarining ortishi, ko'chma kutubxonalar faoliyatining yo'lga qo'yilishi aholining axborot olish

imkoniyatlarini kengaytirdi [8,8]. Xususan, 1967–1970-yillar davomida qishloq kutubxonalarini tarmog‘ining rivojlanishi ularning soni hamda kitob fondlari sezilarli darajada oshganini ko‘rsatadi. Jumladan, 1967-yilda 111 ta qishloq kutubxonasi faoliyat yuritib, ularning umumiy fondi 341 774 nusxani tashkil etgan bo‘lsa, 1970-yilga kelib bu ko‘rsatkich 202 ta kutubxona va 547 418 nusxaga yetgan [9,87].

Kutubxonalar faqat kitob o‘qish joyi emas, balki madaniy-ma’rifiy markaz sifatida faoliyat yuritdi. Bu yerda adabiy kechalar, uchrashuvlar, kitobxonlar konferensiyalari o‘tkazildi. Ayniqsa, yoshlarni tarbiyalashda kutubxonalar muhim rol o‘ynadi. Shu bilan birga, kutubxona faoliyati ham muayyan darajada mafkuraviy yo‘naltirilgan edi. Masalan, ayrim adabiy tadbirlarda ma’lum asarlar orqali kommunistik g‘oyalar targ‘ib qilingan. Bu holatni tanqidiy jihatdan baholash mumkin: bir tomondan kitobxonlikni rivojlantirishga xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa fikrlar xilma-xilligini cheklagan. Mazkur davrda madaniy sohada ijobiy o‘zgarishlar bilan birga qator muammolar ham kuzatildi. Ayrim klub va kutubxonalarning moddiy-texnik bazasi yetarli emas edi. Ko‘p hollarda binolar ta’mir talab holda bo‘lgan, isitish tizimi yaxshi ishlamagan, jihozlar va musiqiy asboblari yetishmagan.

Bundan tashqari, ba’zi hududlarda to‘garaklar umuman tashkil etilmagan yoki samarasiz ishlagan. Malakali mutaxassislar yetishmasligi ham madaniy ishlarning sifatini pasaytirgan omillardan biri edi. Shuningdek, madaniy muassasalar faoliyati ustidan nazorat yetarli darajada emasligi ham kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etishga to‘sqinlik qilgan. Shu bilan birga, madaniy muassasalar tarmog‘ining kengayishi asosan miqdoriy o‘shish bilan cheklanib, sifat jihatidan har doim ham kutilgan natijani bermagan. Bu esa kelgusida ushbu sohani yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa. 1960–1980-yillarda Qoraqalpog‘istonda madaniy-ma’rifiy soha sezilarli darajada rivojlandi. Klub muassasalari, kutubxonalar va xalq universitetlari aholining madaniy hayotida muhim o‘rin egalladi. Ular orqali aholiga bilim berish, dam olishni tashkil etish va ijtimoiy faollikni oshirishga erishildi. Shu bilan birga, ushbu davr madaniyati ikki xil xususiyatga ega bo‘lgan: bir tomondan keng qamrovli rivojlanish va ommalashuv, ikkinchi tomondan esa kuchli mafkuraviy ta’sir. Bu esa madaniy jarayonlarning mazmuniga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Bugungi kunda ushbu davr tajribasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Uning ijobiy jihatlari – madaniy infratuzilmaning kengayishi, aholining qamrovi oshishi – saqlab qolinishi lozim. Ayni paytda, kamchiliklar, xususan, bir tomonlama mafkuraviy yondashuv va moddiy-texnik muammolardan tegishli xulosalar chiqarish zarur. Shunday qilib, 1960–1980-yillarda Qoraqalpog‘istonda madaniy-ma’rifiy tizim shakllanish va rivojlanishning muhim

bosqichini bosib o‘tdi va bu jarayon keyingi davrlar uchun ham mustahkam zamin yaratdi.

ADABIYOTLAR:

1. Нуржанов С., Дошняязов Ж. Социально-духовное состояние общества Каракалпакстана в 1960-1980-х годах (постановка проблемы) // Вестник ККОАНРУз, 2011, – № 4. – С. 61.
2. Клубные учреждения // <https://web.archive.org/web/20081026005840/http://bse.scilib.com/article062055.html> (Дата обращения 13.01.2026)
3. Бармина Е.В., Кривошеева В.Д. Деятельность клубных учреждений Нижнего Тагила в 1960-1980 годы // Сборник материалов II Всероссийской научно-практической конференции «Город, социум, среда: история и векторы развития». – Нижний Тагил, 28-29 октября 2022 г. <https://tagilpress.ru/publications/43640/43640> (Дата обращения 11.01.2026)
4. Мырзамбетов С. Процесс преодоления существующих различий между городом и деревней в условиях Каракалпакии // Вестник ККФАНУзССР., 1981, – № 4. – С. 51.
5. QR MDA, 1-fond, 10-ro‘uxat, 237-ish, 62-varaq.
6. QR MDA, 173-fond, 1-ro‘uxat, 449-ish, 78-varaq.
7. Татыбаева В. Нукус – столица Каракалпакской АССР. – Нукус, 1979. – С. 63.
8. QR MDA, 173-fond, 1-ro‘uxat, 281-ish, 8-varaq.
9. Reymbaev R.S. Qaraqalpaqstanda kitapxanashılıq isi tariyxı (1919-1991-jj.): Tariyx ilim. filos. dokt. (PhD) diss. – Nókis, 2023. – B.87.